## SHARTNOMA №13

2022 yil «19» январь **Qiziltepa tumani**

**"Navoiy Lazzat" MChJ** (bundan buyon **«Yetkazib beruvchi »** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbar **D.Amonov** hamda ikkinchi tomondan **Qiziltepa Maktabgacha ta'lim bo'limi** (bundan buyon **«Buyurtmachi»** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi mudir vvb **N. Temirov** ushbu shartnomani quyidagicha tuzdilar

### I. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha **« Yetkazib beruvchi »** **« Buyurtmachi »**ning buyurtmasiga asosan oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beradi. **« Buyurtmachi »** esa oziq-ovqat mahsulotlarini belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

1.2. **« Yetkazib beruvchi »** va **« Buyurtmachi »** uchun (oziq-ovqat mahsulotlarining turi, xajmi, narxi)

| № | Oziq-ovqat mahsulotlarining turi | O'lch birligi | Miqdori | Narxi | Yetkazib berish qiymati | QQS | | Yetkazib berishning QQS xisobga olingan qiymati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | Stavkasi | Summasi | |
| 1 | 1-nav undan tayyorlangan Qolipli non (500 gr) | dona | 5950 | 1500 | 8 925 000 | 15% | 1 164 130 | 8 925 000 |
| Jami: | | | | | | | | 8 925 000 |

Summa: **Sakkiz million to'qqiz yuz yigirma besh ming so'm**

### II. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI.

**« Yetkazib beruvchi » ning majburiyatlari:**

2.1. Shartnomaning 1.2 bandida ko'rsatilgan miqdordagi va sifatdagi oziq-ovqat mahsulotlarini **« Buyurtmachi »** ga yuk xati bilan topshirish.

2.2. Mahsulotlarni tashib berish.

**« Buyurtmachi » ning majburiyatlari:**

2.3. Oziq-ovqat mahsulotlarini ko'zdan kechirish. Maxsulotlarni mazkur shartnoma talablariga mos kelmasligi aniqlangan taqdirda **« Buyurtmachi »** oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilmaydi.

2.4. Shartnomada belgilangan tartibda oziq-ovqat mahsulotlari xaqini to'laydi.

### III. SHARTNOMA SUMMASI VA HISOB – KITOB TARTIBI

3.1.Mazkur shartnoma summasi **Sakkiz million to'qqiz yuz yigirma besh ming so'mni** tashkil etib so'mda haq to'lanadi.

3.2. Mazkur shartnoma bo'yicha hisob – kitoblar pul ko'chirish yo'li bilan oldindan 30 % pulni to'lash va mahsulot qabul qilingan paytdan boshlab 30 kun ichida qolgan 70% pulni to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. **« Yetkazib beruvchi »** ning aybi bilan **« Buyurtmachi »** oziq-ovqat mahsulotlarini ko'zdan kechirish imkoniyatiga ega bo'lmasa oziq-ovqat mahsulotlarini haqini to'lashni kechiktirishga haqli.

## IV. MASULOTLARNI TOPSHIRISH SHARTLARI.

4.1. Oziq-ovqat mahsulotlarining tasodifan nobud bo'lishi mahsulotni topshirilgan paytdan boshlab « **Buyurtmachi** » ga o'tadi.

4.2. Oziq-ovqat mahsulotlarini topshirishdan boshlab kelishilgan muddatga qadar « **Yetkazib beruvchi** » sifatiga kafolat beradi.

4.3. « **Buyurtmachi** » mahsulotlarni qabul qilib olishda mahsulot miqdorining kamligi, sifatsizligi aniqlangan taqdirda mahsulotlarni qabul qilib olmaslik huquqiga ega.

## V. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI.

5.1. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi. Amal qilish muddati «31» dekabr 2022- yilgacha etib belgilanadi.

## VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Mahsulotlarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va **0,2 %** miqdorda jarima to'laydi.

6.2. To'lovni kechiktirilganligi uchun « **Buyurtmachi** » har bir kechiktirilgan kunga to'lov kechiktirilgan summaning **0,2 %** miqdorida, lekin ushbu summaning **50 %** dan oshmagan miqdorda tovon (penya) to'laydi.

6.3. Zararni qoplash va neustoykani to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## VII. NIZOLARNI HAL QILISH.

7.1. Ushbu shartnoma yuzasidan taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tegishli sud organlariga murojaat etiladi.

## VIII. FORS – MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH.

8.1. Tomonlarning xoxish – istagiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan hollarda (noqulay ob – havo sharoitlari, zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar) fors - major tufayli bajarilmagan yoki qisman bajarilmagan (yetkazib berilmagan yoki to'lab berilmagan) ligi shartnoma shartlarini ijro etish buzilgan deb hisoblanmaydi va ushbu holatda tomonlarni shartnomani bajarish muddati kelishilgan muddatga kechiktiriladi.

## IX. BOSHQA SHARTLAR.

9.1. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda ikkinchi tarafning talabi bilan faqat iqtisodiy sudning qaroriga binoan bekor qilinishi va o'zgartirilishi mumkin. Shartnomani bir taraflama bekor qilish yozma taklif berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Taklif olingandan so'ng 30 kunlik muddat ichida unga javob olinmagan taqdirda shartnomani o'zgartirish va bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

9.2. Taraflar ularning yuridik manzillari va boshqa rekvizitlari o'zgarganligi haqida bir – birlarini 3 kunlik muddatda xabardor qilishlari shart.

9.3. Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bajarilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan holdagina haqiqiydir.

9.4. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi xam bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

9.5. Shartnomaga ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

## X. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR.

10.1.Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

## TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

**«Yetkazib beruvchi»**

**"Navoiy Lazzat" MChJ**
**Manzil: Toshrabot MFY**
**Telefon : 998 91 308 07 67**
**H/r: 2020 8000 1044 1518 1001**
**Bank nomi: Qiziltepa Xamkorbank bank**
**INN: 205717538 MFO: 01064**
**XXTUT: 10710**
**Rahbar __________ D.Amonov**
*(imzo)*

**M.O'.**

**«Buyurtmachi»**

**Qiziltepa tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi**
**Yuridik manzilgoh: A.Navoiy mahallasi**
**A.Temur ko'chasi 25 –uy**
**Telefon: 555 23 69**
**H/r:** 400522860122167091100251038
**Bank nomi: Toshkent shahar Markaziy bank**
**INN:305149348 MFO:00014**
**OKONX: 85100**
**G'aznachilik H/R: 23402000300100001010**
**Bank nomi Markaziy bank Toshkent shahar**
**Bosh boshqarmasi XKKM**
**Bank kodi (MFO) 00014 INN:201122919**

**Mudir vvb N.Temirov**

*)- byudjetdan mablag' oluvchining g'aznachilik bo'linmasida ochilgan tegishli shaxsiy hisobvarag'i (shaxsiy hisobvarag'lari) ko'rsatiladi;

**)- byudjetdan mablag' oluvchining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha talab qilib olinguncha hisobvaragi ko'rsatiladi.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: MK20141231

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
QIZILTEPA TUMAN YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI

210400, Qiziltepa tumani, O‘zbekiston ko‘chasi, 43-uy,
tel.: (998 79) 210-09-15.

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:
   **Shartnoma.**
2. Loyihaning nomi:
   **Mahsulot yetkazib berish shartnomasi.**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:
   **Qiziltepa tumani maktabgacha ta’lim bo‘limi. 2022.19.01.**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz boshlig’i — S.Sharipov
2022.19.01.

**«T A S D I Q L A Y M A N»**
**Qiziltepa tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi**
**Mudiri vvb______________Q. N.Temirov M.U.**

Qiziltepa tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli MTT lar faoliyati uchun olinadigan non mahsuloti narxini aniqlash bo'yicha tanlov komissiyasining

**1 – sonli yig'ilish Bayonnomasi**

2022 yil 18-Yanvar

Qiziltepa tuman

Qiziltepa tumani Qiziltepa tumani Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 2021 yil 15-yanvardagi 19 -sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan tanlov komissiyasining a'zolari qatnashdilar:

| | | |
|---|---|---|
| Komissiya a'zolari: | Bosh bugalter | O.Xamroyev |
| | Oziq-ovqat xisobchisi | B.Azimov |
| | Ozik-ovkat yordamchi xisobchisi | U.Xamroyev |
| | Davlat xaridlari buyicha mutaxassis | B.Qahhorov |

Kun tartibida bitta masala qo'yilgan bo'lib Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli MTT larga qatnayotgan bolalarga bo'lgan non mahsulotlari bilan ta'minlash uchun yetkazib beruvchini va yetkazib beriladigan non mahsulotlarni narxi hamda sifatini aniqlash talabi qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2016 yil 22- dekabrdagi 2850- son bilan ruyxatga o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarning g'azna ijrosi qoidalari, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2018 yil 26-mayda 3016-son ro'yxatdan o'tkazilgan xarid qilish tartib tamoillarini tashkil etish va utkazish tartibi tugrisidagi nizomi, O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9-apreldagi 472 sonli davlat xaridlari tugrisidagi konuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenting 2018 yil 27 sentyabrdagi PK-3953-sonli «Davlat xaridlari tugrisida»gi O'zbekiston Respublikasi konunini bajarilishi chora-tadbirlari tugrisidagi karorining ilovasida kursatilan ruyxatdagi tovar , ish , xizmatlarni to'gridan – to'gri shartnomalar tuzishga ruxsat etilgan. Shu qarorning 27-bandiga asosan non maxsulotlari xarid qilishda to'gridan – to'gri shartnomalar tuzishga ruxsat etilgan. Tashkilotimizning xarid komissiyasiga "Qiziltepa Shirmoy non"MChJ tomonidan 18.01.2022- yil taklif xatiga «Navoiy Lazzat» MChJ 18.01.2022-yildagi taklif xatiga «Ekmek ALFA-INVEST» o/k 18.01.2022-yildagi taklif xatlari kelib tushgan bo'lib, ushbu yuborilgan tijorat takliflari barcha komissiya a'zolari va tanlov ishtirokchilarining vakillari bilan birgalikda ko'rib chiqildi va tanlov ishtirokchilarining takliflari tanlov xujjatlariga to'la mos kelishi o'rganib chiqildi va berilgan takliflarning barchasi tanlov xujjatlariga mosligi aniqlandi xamda tanlov ishtirokchilarining eng yaxshi takliflari o'rganib chiqildi

| № | Nomlanishi | O'lch ov Birligi | «Navoiy Lazzat» MChJ | «Ekmek ALFA-INVEST» o/k | "Qiziltepa Shirmoy non"MChJ |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1-nav undan tay-yorlangan Qolipli non (500 gr) | dona | 1500 | 1500 | 1500 |

**Bayonnoma** natijasida komissiya a’zolari

**QAROR QILISHDI:**

So‘zga chiqqan Davlat xaridlari xisobchisi B.Qahhorov tijorat takliflarni takdim etgan uch ta’minotchidan «Shirmoy non» MChJ ,«Navoiy Lazzat MCHJ» va “Ekmek ALFA-INVEST ”O/K larda non mahsuloti narxi arzon va bir xilligi tegishli ruxsatnomalari mavjudligini xamda Qiziltepa tuman hududlaridagi MTT larga o‘z vaqtida sifatli yetkazib berilishiga kafolat berganliklarini inobatga olish zarurligini ma’lum qildi va MTTlar xududlar kesimida bo‘lib berildi.

**Yukoridagilardan kelib chikib;**

**1.**Qiziltepa Maktabgacha ta’lim bo‘limiga qarashli MTTlar uchun zarur bo‘lgan non mahsulotlarini quyidagi ta’minotchilardan jadvaldagi narxda sotib olinsin.

| № p/p | Ta’minotchi | Narxlarning solishtirma (raqobot)varaqasi tartib raqami va bir maxsuloti narxi (sumda) |
|---|---|---|
| 1 | «Qiziltepa Shirmoy NON» MChJ | 1-1500 |
| | «Navoiy Lazzat »MChJ | 1-1500 |
| | «Ekmek ALFA-INVEST» X/K | 1-1500 |

2. Tanlov yakunlari bo‘yicha «Qiziltepa Shirmoy NON»MChJ, «Navoiy Lazzat »MChJ va «Ekmek ALFA-INVEST» X/K bilan non mahsuloti sotib olish bo‘yicha shartnomalar tuzish uchun muzokaraga kirishilsin.

3.Tanlov komissiyasining bayonnomasi o’qib berildi va to’g’ri tuzildi deb tan olindi.

**IMZOLAR:**

Komissiya a’zolari:

| | | |
|---|---|---|
| | Bosh bugalter | O.Xamroyev |
| | Oziq-ovqat xisobchisi | B.Azimov |
| | Oziq-ovqat yordamchi xisobchisi | U.Xamroyev |
| | Davlat xaridlari buyicha mutaxassis | B.Qahhorov |

# Tijorat taklifi

"Navoiy Lazzat " MCHJ Qiziltepa tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli MTTlarga NON maxsulotlarini tavsiya etadi. To'lov pul ko'chirish orqali amalga oshiriladi.

| T\r | Maysulot nomi | o'lchov birlik | narxi |
|---|---|---|---|
| 1 | **Qolipli Non ( 500 gramm)** | **dona** | **1500** |

Taklif qilinayotgan non maxsulotiga sifatiga kafolat beramiz

Korxona raxbari D.Amonov

Қизилтепа шаҳар А. Навоий мфй:
„Қизилтепа ширмой нон" мчж.
Кизилтепа шахар Ҳ/р 20210000800425663001 Кизилтепа «Микрокредит» банк
Кизилтепа шахар МФО 00213 ИНН 200017035

№ 1 Январь 2022 йил

## ТИЖОРАТ ТАКЛИФИ

„Қизилтепа Ширмой Нон" мчж томонидан таклиф килинадиган нон махсулоти хакида маълумот.

| Т/р | Маҳсулот номи | Улчов бирлиги | Нархи |
|---|---|---|---|
| 1 | Кўмачли нон 1 сорт | | 1500 |
| 2 | | | |
| 3 | | | |

Таклиф килинаётган нон махсулоти сифатига кафолат берамиз.

« Январь. 2022 й »

Раҳбари: [signature] Ю. Каримов.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
QIZILTEPA SHIRMOY NON

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI "EKMEK ALFA-INVEST" OILAVIY KORXONASI № 3 2022y "18" 01

# Tijorat taklifi

**EKMEK ALFA -INVEST O.K Qiziltepa tuman MTBga qarashli MTTlarga NON maxsulotlarini tavsiya etadi. To'lov pul ko'chirish orqali amalga oshiriladi.**

| T\r | Tovar nomi | o'lchov birlik | narxi |
|---|---|---|---|
| 1 | Qolipli Non 500 gr | dona | 1500 |

**Taklif qilinayotgan non maxsulotiga sifatiga kafolat beramiz**

**Korxona raxbari:** ________________ **imzo**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI OILAVIY KORXONASI EKMEK ALFA-INVEST